

ILMIY-FANTASTIK PROZANING JANRIY TARAQQIYOTI VA BADIY OLAM TUSHUNCHASINING NAZARIY TALQINI

Mashrabova Buviniso Nurbek qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

assistant o'qituvchisi,

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

+998(99) 772 17 17

buvinisomashrabova@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21923380>

Annotatsiya. Maqolada ilmiy-fantastik prozaning janr sifatida shakllanishi, tarixiy taraqqiyot bosqichlari va badiiy olam tushunchasining nazariy mazmuni G'arb, rus hamda o'zbek adabiyotshunosligida o'rganilishi yoritiladi. Tadqiqotning maqsadi ilmiy fantastikani tarixiy muhit, ilmiy tafakkur, poetik an'ana asosida yangilanib boradigan janriy jarayon sifatida tahlil etishdan iborat.

Kalit so'zlar: ilmiy fantastika, janr, badiiy olam, kognitiv begonalashtirish, novum, fantastik shartlilik, ichki qonuniyat, tarixiy poetika, intersemiotik talqin.

THE GENERIC DEVELOPMENT OF SCIENCE FICTION PROSE AND THE THEORETICAL INTERPRETATION OF THE FICTIONAL WORLD

Mashrabova Buviniso Nurbek qizi

Assistant Lecturer,

Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences,

Andijan State Pedagogical Institute

Tel.: +998 (99) 772 17 17

E-mail: buvinisomashrabova@gmail.com

Abstract. This article examines the formation of science fiction prose as a literary genre, its historical stages of development, and the theoretical interpretation of the concept of the fictional world in Western, Russian, and Uzbek literary

scholarship. The study aims to analyze science fiction as a dynamic literary genre shaped by historical context, scientific thought, and evolving poetic traditions. Particular attention is devoted to the theoretical foundations of the fictional world, its genre-specific features, and the interaction between scientific imagination and artistic representation. The article also discusses major scholarly approaches to science fiction and highlights its distinctive poetic principles, including cognitive estrangement, novum, fictional convention, and the internal logic of the fictional world.

Keywords: *science fiction, literary genre, fictional world, cognitive estrangement, novum, fictional convention, internal coherence, historical poetics, intersemiotic interpretation.*

ЖАНРОВОЕ РАЗВИТИЕ НАУЧНО-ФАНТАСТИЧЕСКОЙ ПРОЗЫ И ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОГО МИРА

Машрабова Бувинисо Нурбек кизи

Андижанский государственный педагогический институт

ассистент кафедры,

доктор философии (PhD) по филологическим наукам,

Тел.: +998 (99) 772 17 17

E-mail: buvinisomashrabova@gmail.com

Аннотация. *В статье рассматриваются становление научно-фантастической прозы как самостоятельного литературного жанра, основные этапы её исторического развития, а также теоретическое осмысление понятия художественного мира в западном, русском и узбекском литературоведении. Цель исследования заключается в анализе научной фантастики как динамичного жанра, формирующегося под влиянием исторической эпохи, научного мировоззрения и развития поэтической традиции. Особое внимание уделяется теоретическим основам художественного мира, его жанрово-поэтическим особенностям, а также*

взаимодействию научного воображения и художественной репрезентации. В статье освещаются основные научные подходы к изучению научной фантастики и раскрываются её ведущие поэтические принципы, включая когнитивное остранение, новум, фантастическую условность, внутреннюю логику художественного мира и интерсемиотическую интерпретацию.

Ключевые слова: научная фантастика, литературный жанр, художественный мир, когнитивное остранение, новум, фантастическая условность, внутренняя логика, историческая поэтика, интерсемиотическая интерпретация.

Ilmiy-fantastik proza zamonaviy adabiy jarayonda fan, texnologiya, ijtimoiy tajriba va muallif tasavvurining o'zaro ta'sirini badiiy shaklda namoyon etadigan murakkab janriy hodisadir. Uning rivojini kelajak, kosmos yoki texnik yangiliklar tasviri bilan cheklash ilmiy fantastikaning poetik imkoniyatlarini toraytiradi. Mazkur janr voqealikni muqobil shartlar asosida qayta ko'rib chiqadi, inson va jamiyat taraqqiyotining ehtimoliy yo'nalishlarini sinovdan o'tkazadi hamda o'quvchini odatiy dunyo haqidagi tasavvurlarini tanqidiy baholashga undaydi.

D. Quronov janrni bir adabiy tur doirasida tarixan shakllanadigan, nisbatan barqaror poetik tuzilishga ega asar tipi sifatida izohlaydi va janrlarning doimiy harakatda yashashini ta'kidlaydi [7; 367–368]. H. Umurov ham adabiy tur va janrlar tasnifini badiiy asarning mazmuniy-shakliy xususiyatlari bilan bog'lab, janriy belgilarning tarixiy va poetik mohiyatiga e'tibor qaratadi [8; 214–215]. Demak, ilmiy-fantastik prozaning nazariy talqinida janrning nisbiy barqarorligi bilan uning muttasil yangilanishi o'rtasidagi dialektik munosabat asosiy metodologik tamoyil bo'lib xizmat qiladi.

Ilmiy fantastikaning boshlanishini XIX asr ilmiy-texnik taraqqiyoti yoki Jyul Vern va Gerbert Uells ijodi bilan bog'lash bir tomonlama yondashuvdir. A. Roberts janr tarixini qadimgi roman, o'rta asr sayohat va mo'jizaviy hikoyalari, Uyg'onish davri utopiyasi hamda XVII asrdagi ilmiy va diniy tafakkur o'zgarishlari bilan aloqador holda ko'radi [3; 1–23]. Uning yondashuvida ilmiy fantastika birdan paydo

bo'lgan janr emas, balki insonning noma'lum olamni tasavvur qilish, mavjud tartibni muqobil makon orqali baholash va ilmiy bilimni hikoyaga aylantirish tajribalarining uzoq tarixiy natijasidir.

Yu. I. Kagarlitskiy ham fantastika tarixini Rable, Svift, Volter, Vern va Uells kabi adiblar ijodi orqali uzluksiz adabiy an'ana sifatida talqin qiladi. Olim utopiya, antiutopiya, fantastik sayohat, texnik bashorat va ijtimoiy prognoz shakllarini zamonaviy ilmiy fantastikaning tarixiy-poetik ildizlari deb hisoblaydi [6; 5–17; 58–116; 265–348]. Bu qarash janr genezisida fan yutuqlari, satira, falsafiy masal, utopik tafakkur va ijtimoiy tanqidning ham muhim rol o'ynaganini ko'rsatadi.

T. A. Chernysheva ilmiy fantastikaning tez o'zgaruvchi tabiati va u haqidagi tanqidiy qarashlarning ham davr bilan birga yangilanishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, zamonaviy fantastika qadimiy ertak va mifologik modellardan butunlay uzilmaydi; aksincha, ularni yangi ilmiy dunyoqarash, zamonaviy sababiylik va ijtimoiy muammolar bilan qayta tashkil etadi [4; 229–248]. Shunday qilib, ilmiy fantastika tarixiy an'ana va zamonaviy epistemologik yangilikning kesishuv nuqtasida shakllanadi.

J. Riderning tarixiy janr nazariyasi mazkur xulosalarni yanada aniqlashtiradi. U ilmiy fantastika tarixiy va o'zgaruvchan ekanini, uning yagona mohiyati, bitta majburiy belgisi yoki mutlaq boshlanish nuqtasi mavjud emasligini qayd etadi. Janr matnlarning ro'yxati emas, ularni muayyan usulda o'qish, o'zaro bog'lash va madaniy muomalaga kiritish amaliyotidir [2; 193–197]. Shu sababli ilmiy-fantastik prozaning taraqqiyotini “qadimgi shakl – tayyor zamonaviy janr” ko'rinishidagi tushunish maqsadga muvofiq.

Ilmiy fantastikaning ta'riflaridan biri D. Suvin tomonidan ilgari surilgan. Olim janrning zarur sharti sifatida begonalashtirish va bilish jarayonining o'zaro ta'sirini ko'rsatadi; uning asosiy formal vositasi muallifning empirik muhitiga muqobil bo'lgan tasavvuriy doiradir [1; 374–375]. Ushbu konsepsiyada begonalashtirish o'quvchiga odatiy voqealikni boshqa jihatdan ko'rish imkonini

bersa, kognitivlik yaratilgan yangilikning ichki mantiq, sababiylik va bilish imkoniyati bilan asoslanishini bildiradi.

Rus fantastikashunosligida ham janrning estetik tabiati birlamchi deb qaraladi. Yu.I.Kagarlitskiy ilmiy fantastikani texnik g'oyalar tizimiga aylantirishga qarshi chiqib, badiiylik mezonini asosiy talab sifatida ilgari suradi [6; 5–17]. Chernysheva esa fantastik shartlilikning badiiy tafakkur, mif va ilmiy tasavvur o'rtasidagi murakkab aloqaga tayanganini ko'rsatadi [4; 229–248]. Bu qarashlar ilmiy fantastikani “ilmiy ma'lumot + sarguzasht” yig'indisi emas, o'z poetik qonuniyatiga ega adabiy hodisa sifatida talqin qilishga asos beradi.

Badiiy olam tushunchasi ilmiy-fantastik prozaning poetikasini tushuntirishda markaziy o'rin tutadi. D. S. Lixachyov adabiy asar obyektiv voqelikni oddiy aks ettirmasdan, o'z makoni, zamoni, ijtimoiy tartibi, moddiy muhiti, psixologik va axloqiy qonunlariga ega alohida ichki dunyo yaratishini ta'kidlaydi [5; 74–80]. Bunday dunyo real hayotga tayanadi, biroq muallif tanlovi va badiiy vazifa ta'sirida qayta tuziladi.

D. Quronov badiiy asarni ijodkor yaratgan yangi estetik mavjudlik va muallif bilan o'quvchi o'rtasidagi badiiy kommunikatsiya vositasi sifatida talqin qiladi. Olim asarni o'zaro bog'langan qismlardan tarkib topgan sistem butunlik deb baholaydi; mazmun, shakl, obraz, syujet, kompozitsiya va nutqiy vositalar shu butunlik doirasida funksional ahamiyat kasb etadi [7; 116–128]. Mazkur yondashuv ilmiy-fantastik olamdagi termin, neologizm, toponim, texnologik predmet yoki ilmiy farazni alohida birlik sifatida emas, umumiy poetik tizimning komponenti sifatida o'rganishni talab qiladi.

Tahlil qilingan nazariyalar ilmiy fantastikaning ikki tomonlama tabiatini ko'rsatadi. Bir tomondan, u tarixiy jihatdan utopiya, fantastik sayohat, satira, ilmiy bashorat va ijtimoiy roman bilan aloqador bo'lgan o'zgaruvchan janrdir. Ikkinchi tomondan, uning turli davrlardagi ko'rinishlarini birlashtiruvchi poetik tendensiya mavjud: odatiy olamdan farqli, biroq o'z ichki mantiqiga ega muqobil voqelik yaratish va shu voqelik yordamida real hayotni bilish hamda baholash.

Shu asosda ilmiy-fantastik prozani tadqiq etishda uch darajali yondashuv taklif etiladi: birinchi darajada janrning tarixiy-madaniy o'zgarishi; ikkinchi darajada kognitiv begonalashtirish, novum va fantastik shartlilik kabi poetik mexanizmlar; uchinchi darajada esa badiiy olamning leksik, narrativ, pragmatik va aksiologik yaxlitligi o'rganiladi. Mazkur model kelgusida zamonaviy ingliz ilmiy-fantastik asarlaridagi terminlar, kvaziterminlar, neologizmlar va ularning kino talqinidagi intersemiotik transformatsiyasini tahlil qilish uchun nazariy poydevor vazifasini bajaradi.

XULOSA

Ilmiy-fantastik prozaning janriy taraqqiyoti uzoq adabiy an'analar, ilmiy tafakkurdagi burilishlar va ijtimoiy ehtiyojlarning o'zaro ta'siri natijasidir. Uni faqat XIX–XX asr texnik yutuqlari bilan bog'lash janrning utopik, satirik, falsafiy va mifopoetik ildizlarini e'tibordan chetda qoldiradi.

Badiiy olam ilmiy-fantastik asarda syujetning fonigina emas, balki makon-zamon, ilmiy qonuniyat, nominatsiya, qahramon nutqi, ijtimoiy institut va aksiologik munosabatlarni birlashtiruvchi sistem butunlikdir. Uning poetik ishonarliligi real voqelikka to'liq moslik bilan emas, asar ichidagi qonunlarning izchilligi bilan belgilanadi.

Shunday qilib, ilmiy-fantastik prozani kompleks tadqiq etish tarixiy poetika, lingvostilistika, kontekstual pragmatika va intersemiotik yondashuvlarni birlashtirishni talab etadi. Bu metodologiya zamonaviy ingliz ilmiy-fantastik prozasida yaratilgan badiiy olamning til vositalari hamda ularning kino talqinidagi o'zgarishlarini tizimli tahlil qilish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Suvin, D. On the Poetics of the Science Fiction Genre // College English. 1972. Vol. 34, No. 3. P. 372–382.
2. Rieder, J. On Defining SF, or Not: Genre Theory, SF, and History // Science Fiction Studies. 2010. Vol. 37, No. 2. P. 191–209.

3. Roberts, A. The History of Science Fiction. 2nd ed. London: Palgrave Macmillan, 2016. 524 p.
4. Chernysheva, T. A. O staroy skazke i noveyshey fantastike // Voprosy literatury. 1977. № 1. S. 229–248.
5. Lixachyov, D. S. Vnutrenniy mir khudozhestvennogo proizvedeniya // Voprosy literatury. 1968. № 8. S. 74–87.
6. Kagarlitskiy, Yu. I. Chto takoye fantastika? Moskva: Khudozhestvennaya literatura, 1974. 352 s.
7. Quronov, D. Adabiyot nazariyasi asoslari. Toshkent: Navoiy universiteti; Akademnashr, 2018. 480 b.
8. Umurov, H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Toshkent: A. Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 2004. 264 b.